

Toshkent sh.

2022 yil “02” 08

“SUVINSHOOTLAR TEXNIK XIZMATI” MChJ nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor B.D. Sotiboldiyev bir tomondan (bundan buyon matnda “Bajaruvchi” deb yuritiladi) hamda “SIRDARYO” HSXB nomidan Nizom asosida ish yurituvchi birlashma boshlig‘i O.A. Xolxo‘jaev, ikkinchi tomondan (bundan buyon matnda “Buyurtmachi” deb yuritiladi) quyidagilar haqida mazkur shartnomani tuzdik:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1. “Sirdaryo” havzasi suv xo’jaligi birlashmasining ma’muriy binosiga 2022 yil davomida texnik xizmat ko’rsatish uchun majburiyatini oladi, “Buyurtmachi” ushbu xizmatlarni va ishlarni qabul qilish va haqini to’lash majburiyatini oladi.

II. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

2.1. Buyurtmachining huquqlari:

- bajaruvchidan texnik shartlarga lozim darajadagi xizmatlarni ko’rsatishni talab qilish;
- lozim darajadagi sifatda xizmat ko’rsatilmagan taqdirda, o‘z xohishiga ko‘ra quyidagilarni talab qilish:
 - kamchiliklarni bepul bartaraf etish yoki Buyurtmachining yoki uchinchi shaxsning kamchiliklarni bartaraf etishga doir xarajatlarini qoplash;
 - bahosini mutanosib ravishda pasaytirish;
 - shartnoma shartlarining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish.

2.2. Buyurtmachining majburiyatları:

- ushbu shartnoma shartlariga muvofiq ko’rsatilgan xizmatlarni qabul qilish;
- ushbu shartnomaning 3.1 va 3.2-bandlariga muvofiq ko’rsatilgan xizmatlar uchun to’lovlarni amalga oshirish.

2.3. Bajaruvchining huquqlari:

- buyurtmachidan amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda va hajmda ko’rsatilgan xizmatlar uchun oldindan to’lov va yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirishni talab qilish;
- buyurtmachidan bajarilgan ishni qabul qilishni asossiz ravishda rad etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish.

2.4. Bajaruvchining majburiyatları:

- ushbu shartnomaga muvofiq yoki Buyurtmachining ushbu shartnomaning 4.8-bandida belgilangan tartibda u tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriqqa binoan xizmatlarni belgilangan muddat, miqdor va sifatlar bo‘yicha ko’rsatish;

– agar xizmat ko‘rsatish jarayonida Bajaruvchi shartnama shartlaridan va texnik shartlardan chetga chiqsa, Buyurtmachining talabiga binoan uch kun ichida aniqlangan barcha kamchiliklarni bepul bartaraf etish.

III. SHARTNOMA BAHOSI VA XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Ushbu shartnomaning bahosi 116 400 000,0 (Bir yuz o'n olti million to'rt yuz ming) so'm, QOS siz.

Ko‘rsatiladigan xizmatlarning bahosi ushbu shartnomaning ilovasida ko‘rsatiladi.

3.2. Buyurtmachi taqdim etiladigan xizmatning 30 foizi miqdorida oldindan to‘lovnini amalga oshiradi va mablag‘ Bajaruvchining hisob raqamiga kelib tushgan sanadan boshlab ushbu shartnomaning majburiyatlari bajarilishi boshlanadi.

Ko‘rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitobning qolgan qismi bajarilgan ishlari to‘g‘risidagi dalolatnomasi imzolanganidan keyin uch ish kuni ichida amalga oshiriladi.

3.3. Xizmatlar bo‘yicha hisob-kitoblar bank o‘tkazmasi orqali Bajaruvchining hisob raqamiga o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

IV. SHARTNOMANI BAJARISH

4.1. Shartnoma shartlari ushbu shartnoma va qonun hujjatlari talablariga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar tomonlar o‘z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlagan bo‘lsa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnomanini bajarishdan bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi sanasi hisobvaraqt-faktura tuzilgan kun deb hisoblanadi.

G‘aznachilik shtampida ko‘rsatilgan sana Buyurtmachining xizmatlar uchun to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha majburiyatlarini bajaradigan kun hisoblanadi.

4.4. Buyurtmachining roziligi bilan xizmatlar muddatidan oldin taqdim etilishi mumkin.

4.5. Buyurtmachi belgilangan muddatlarni buzgan holda ko‘rsatilgan xizmatni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.6. Belgilangan miqdordan ortiq bitta nomdagi xizmatni ko‘rsatish xuddi shu texnik topshiriqqa kiritilgan boshqa nomdagi xizmatning kamchiliklarini to‘ldirish deb hisoblanmaydi, kamchiliklar to‘ldirilishi lozim, Buyurtmachining oldindan yozma roziligi bilan amalga oshiriladigan holatlar bundan mustasno.

4.7. Ko‘rsatilayotgan xizmat to‘g‘ridan-to‘g‘ri Buyurtmachining mas‘ul xodimlari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar hajmi, ularning sifati ko‘rsatilgan hisobvaraqt-faktura bo‘yicha qabul qilinadi.

Shartnomada nazarda tutilgan xizmatlar ushbu shartnomaga muvofiq yoki ushbu shartnomada belgilangan muddatlarda va hajmlarda amalga oshiriladi.

Buyurtma bevosita (qo‘lda), pochta orqali yoki boshqa usul bilan xizmatlarni ko‘rsatish nazarda tutilayotgan sana boshlanishidan besh kundan kechiktirmay taqdim etiladi. Buyurtma bevosita (qo‘lda) qabul qilganda, Bajaruvchining xodimi

Buyurtmachida qoladigan buyurtma nusxasida qabul qilinganligi to‘g‘risida belgi qo‘yadi.

4.8. Buyurtmachi ilgari berilgan buyurtmani bekor qilishga yoki xizmatlarning tegishli qismini ko‘rsatish sanasini Bajaruvchini buyurtmada ko‘rsatilgan sanadan kamida bir kun oldin xabar bergen holda o‘zgartirishga haqli.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati, miqdori, ularning bahosi Bajaruvchi tomonidan noto‘g‘ri belgilanganlik holati aniqlangan taqdirda, Bajaruvchi taqdim etilayotgan xizmatlarning sifatini, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob ishlarini amalga oshiradi va ushbu hisoblangan summaga qo‘srimcha ravishda mijozga noto‘g‘ri hisoblangan summaning 20% miqdorida jarima to‘laydi.

5.2. Agar taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati shartnomada ko‘rsatilgan texnik va boshqa shartlarning talablariga javob bermasa, aybdor tomon taqdim etilgan sifati lozim darajada bo‘lmagan xizmatlar bahosining 20% miqdorida jarima to‘laydi.

5.3. Jarima va penyadan tashqari, Bajaruvchi Buyurtmachiga xizmatlarni taqdim etmaslik natijasida yetkazilgan zararni qoplaydi.

5.4. Xizmatlar kechiktirilgan yoki ko‘rsatilmagan taqdirda, Bajaruvchi Buyurtmachiga har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, ammo jarimaning umumiyligi miqdori ko‘rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penyani to‘lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani to‘g‘ri bajarishdan va xizmatlarni kechiktirish yoki ko‘rsatmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

5.5. Ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘loymi o‘z vaqtida to‘lamagan taqdirda, Buyurtmachi Bajaruvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun muddati o‘tgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o‘tgan to‘lov miqdorining 50 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penya to‘laydi.

5.6. Buyurtmachi shartnomaning tegishli shartini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikka tortilganda, tegishli harakat (harakatsizlik) natijasida Buyurtmachi tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganligi (lozim darajada bajarilmaganligi) yuzasidan Bajaruvchining javobgarligi ham ko‘rib chiqiladi.

Buyurtmachining Bajaruvchi aybi bilan shartnomani bajarmaganligi (lozim darajada bajarilmaganligi) natijasida yetkazilgan zarar, belgilangan tartibda Bajaruvchi tomonidan qoplanadi.

5.7. Tomonlarning ushbu shartnomada ko‘zda tutilmagan javobgarlik masalalari O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjalariiga muvofiq hal qilinadi.

VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Tomonlar o‘rtasida ushbu kelishuvdan kelib chiqadigan nizolar tomonlar o‘rtasida muzokaralar yo‘li bilan hal qilinadi.

6.2. Tomonlar o‘rtasidagi muzokaralar yo‘li bilan hal qilinmagan nizolar hal qilinadi.

VII. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1. Agar ushbu shartnoma tuzilgandan so‘ng, ushbu shartnomada belgilangan majburiyatlarning biron bir tomonini to‘liq yoki qisman to‘g‘ri bajarishiga to‘sinqlik qiladigan holatlar yuzaga kelsa va agar bunday holatlar, ya’ni yong‘in, toshqin, zilzila, boshqa tabiiy ofatlar, eksport yoki importga to‘sionalar yoki embargolar, urush, jangovar harakatlar, terroristik harakatlar, ish tashlashlar (tomonlar ishchilarining ish tashlashlaridan tashqari), pandemiya, amaldagi qonunchilikdagi o‘zgarishlar, davlat organlari va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qabul qilingan umumiylar xarakterdagi qarorlar tomonlarning shartnoma shartlarini bajarishiga bevosita ta’sir qilsa, tegishli majburiyatlarning bajarilishi vaqtida bunday holatlar bartaraf etilgan vaqtga yoki ularning oqibatlari tugashi vaqtiga ko‘chiriladi.

7.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan Tomon, ushbu holat haqida shuningdek, holatning taxminiy davomiyligi to‘g‘risida boshqa Tomonni yozma ravishda 7 (yetti) kun ichida xabardor qilishi shart. Agar yuqorida ko‘rsatilgan holatlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabar berilmagan bo‘lsa, yengib bo‘lmas kuch ta’sirida zarar yetkazilgan Tomon ushbu holatlarni asos qilib ololmaydi.

7.3. Xabarnomada ko‘rsatilgan faktlar rasmiy manbalar tomonidan berilgan hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak, shu jumladan, press-relizarlar, biroq ular bilan cheklanmaslik lozim. Bunday xabarnomaning yo‘qligi, shuningdek tegishli dalillarning yo‘qligi ushbu tomonni shartnoma majburiyatlarini bajarishdan ozod qilinishiga asos sifatida yuqoridagi holatlarni keltirish huquqididan mahrum qiladi.

7.4. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar zudlik bilan o‘zaro muzokaralar olib boradilar va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish yoki bartaraf etish maqsadida ko‘rildigan choralar to‘g‘risida kelishib oladilar.

7.5. Agar fors-major holatlari yoki ularning oqibatlari tomonlarning o‘z majburiyatlarini bajarishiga to‘sinqlik qiladigan bo‘lsa, tomonlarning har biri boshqa tomonga ushbu shartnomani bekor qilishning kutilayotgan sanasidan 10 (o‘n) ish kuni oldin yozma ravishda xabar yuborganidan keyin ushbu shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bunday holda tomonlarning hech biri boshqa tomonidan fors-major holatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli emas. Shuningdek, Bajaruvchi bajarilmagan majburiyatlarini uchun Buyurtmachidan olingan barcha to‘lovlarni Buyurtmachiga qaytaradi va Buyurtmachi Bajaruvchining bajarilgan barcha majburiyatlarini to‘liq to‘laydi.

VIII. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH

8.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari, ishchilar yoki vositachilar har qanday noqonuniy ustunliklarga yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun bevosita yoki bilvosita pul mablag‘lari yoki qimmatliklarni to‘lashni amalga oshirmaydi.

8.2. Ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari, ishchilar yoki vositachilar pora berish/olish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlarning talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar. Jinoiy yo‘l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga oid xalqaro hujjatlar talablarini buzilishi kabi harakatlarni amalga oshirmaydi.

8.3. Ushbu shartnomaga Tomonlarining har biri boshqa Tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag‘batlantirishdan, shu jumladan pul mablag‘lari, sovg‘alar berish, ularga ish (xizmatlar)ni bepul bajarishi va ushbu bandda ko‘rsatilmagan boshqa usullar bilan xodimning rag‘batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatlarni sodir etishdan bosh tortadi.

Xodimning uni rag‘batlantiruvchi tomon foydasiga amalga oshirgan harakatlari deganda quyidagilar tushuniladi:

- boshqa kontragentlar bilan taqqoslaganda asossiz ustunliklarni taqdim etish;
- har qanday kafolatlar bilan ta’minalash;
- amaldagi tartib-taomillarni tezlashtirish;
- xodim tomonidan o‘z vazifalari doirasida amalga oshiriladigan, ammo Tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoyillariga zid bo‘lgan boshqa harakatlar.

8.4. Agar Tomonlardan biri mazkur shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini buzgan yoki buzishi mumkin deb gumon qilsa, ikkinchi Tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majbur. Yozma xabarnomadan so‘ng, tegishli Tomon ushbu shartnomaga bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini buzilish sodir bo‘lmaganligi yoki sodir bo‘lmasligi tasdiqlangunga qadar to‘xtatib turishga haqli. Ushbu tasdiq yozma xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yuborilishi kerak.

8.5. Yozma xabarnomada Tomon kontragent, uning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari tomonidan ushbu shartlar va qoidalarning buzilganligi yoki buzilishi mumkinligini ishonchli tarzda tasdiqlaydigan yoki asoslashi mumkin bo‘lgan faktlarga tayanishi yoki tegishli materiallarni taqdim etishga majbur, ya’ni pora olish/berish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlar asoslantirilishi lozim.

8.6. Shartnomaning taraflari korrupsiyaning oldini olish choralarini ko‘rish tartib-taomillarini tan oladi va ularga rioya etilishini nazorat qiladi. Bunda Tomonlar korrupsiyaviy faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan kontragentlar bilan ishbilarmonlik munosabatlari xavfini minimallashtirish, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish maqsadida bir-biriga o‘zaro yordam berish uchun oqilona harakatlarni amalga oshiradilar. Shuningdek, Tomonlar korrupsiyaviy faoliyatga Tomonlarning ishtiroki xavfini oldini olish maqsadida tekshiruvlar o‘tkazish tartib-taomillarini amalga oshirilishini ta’minalaydilar.

8.7. Tomonlar o‘zlarining sodir etilishi mumkin bo‘lgan noqonuniy xatti-harakatlari va ushbu shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarining buzilishi kontragentning ishonchliligi reytingini pasaytirishidan tortib ushbu shartnomaning bekor qilinishigacha bo‘lgan noxush oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tan oladi.

8.8. Tomonlar maxfiylik tamoyillariga rioya qilgan holda ushbu shartnomani bajarish doirasida keltirilgan faktlar bo‘yicha tegishli tartib-taomillar amalga oshirilishini va amaliy qiyinchiliklarni bartaraf etish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizoli vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha samarali choralarini qo‘llashni kafolatlaydilar.

8.9. Tomonlar ushbu shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini bajarish bo‘yicha to‘liq maxfiylikni, shuningdek, talablar buzilganligi faktlari

to‘g‘risida xabar bergan Tomon uchun ham, shuningdek, xabar bergan Tomonning xodimlari uchun ham salbiy oqibatlar keltirmasligini kafolatlaydilar.

IX. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

9.1. Ushbu shartnoma Tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yilning 31 dekabrgacha amal qiladi.

9.2. Tomonlar o‘rtasidagi munosabatlар ushbu shartnomaning barcha shartlari bajarilganda va hisob-kitoblar to‘liq amalga oshirilganda tugaydi.

X. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Ushbu shartnoma tomonlarning kelishuvi bilan yoki Tomonlardan birining talabiga binoan, boshqa tomon tomonidan shartnoma shartlari sezilarli darajada buzilgan taqdirda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

10.2. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o‘zgartirish va qo‘srimchalar faqat yozma ravishda tuzilgan va taraflarning tegishli vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi.

10.3. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzildi.

10.4. Ushbu shartnoma, unga kiritilgan o‘zgartirishlar (qo‘srimchalar) tomonlar tomonidan imzolangan paytdan boshlab amalga oshiriladi.

XI. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI

BAJARUVCHI

“SUVINSHOOTLAR TEXNIK XIZMATI” MChJ

Manzil:Toshkent viloyati,Yuqori Chirchiq tumani,Yangibozor,
Mustaqillik ko‘nasi 119.
Tel/faks: (+99893) 987-00-09
H/r: 20208000805473961001
STIR:309160855
OKED: 33120
MFO: 00771
AT Xalq banki Toshkent viloyati
Yuqori Chirchiq filiali

BUYURTMACHI

“SIRDARYO” HAVZASI SUV XO‘JALIGI BIRLASHMASI

Manzil: 100187, Toshkent sh.,
Mirzo Ulug‘bek tumani,
Qorasuv – 4 dahasi, 11a-uy
Tel/faks: 71-265-82-46
SHHR: 100010860262697042990124002
STIR: 200 540 383, OKONX: 22 100,
IFUT (OKED): 01 613
Operu Kaznacheystva Min. fin. RUz.
Kaz/sch: 2340 2000 3001 0000 1010
MB BB XKKM Toshkent sh.
MFO: 00014, STIR: 201 122 919

Direktor



B.D. Sotiboldiyev

Birlashma boshlig‘i



O.A. Xolxo‘jaev

Умарова О.А.

2022 yil “ 02 ” 08

1/2022 - sonli shartnomaga

1 - ilova

SPETSIFIKATSIYA

T/ r	Xizmat (ish) nomi	O'lcov birligi	Soni	Bir donasining narxi	Umumiy narxi
1	Ma'muriy binoning santex-nikasiga texnik xizmat ko'rsatish	xizmat	1	52 378 200	52 378 200
2	Ma'muriy binoning elektr jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish	xizmat	1	64 021 800	64 021 800
	JAMI				116 400 000

Bajarilayotgan xizmat (ish)ning umumiy qiymati, jami:
QQSiz 116 400 000 (Bir yuz o'n olti million to'rt yuz ming) so'mni tashkil etadi.

BAJARUVCHI:

“SUVINSHOOTLAR
TEXNIK XIZMATI” MChJ

B.D. Sotiboldiyev



BUYURTMACHI:

“SIRDARYO” HAVZASI
SUVO‘JALIGI BIRLASHMASI

O.A. Xolxo'jaev



2022 yil “02” 08
1/2022 - sonli shartnomaga
2 - ilova

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ASOSIY SHARTLAR

1. Taraflar shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va‘da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to‘lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimi o‘z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo‘yicha bir Taraf Xukumat uyidan foydalanish boshqarmasi xodimining axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbazarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo‘lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

“1008” ishonch telefoni;

Telegram-kanali («@anticorbot»);

Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

Izoh: Shartnomadagi ushbu shartlar “yarim qora” shriftda bayon etiladi.

BAJARUVCHI:

“SUVINSHOOTLAR
TEXNIK XIZMATI” MChJ


B.D. Sotiboldiyev

BUYURTMACHI:

“SIRDARYO” HAVZASI
SUV XO‘JALIGI BIRLASHMASI



O.A. Xolxo‘jaev

4639819



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"SUVINSHOOTLAR TEXNIK XIZMATI" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatiliger holdagi to'liq nomi)

"SUVINSHOOTLAR TEXNIK XIZMATI" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

28.12.2021

1078902

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanaci.

(Sana, oy (so'z bilan), yil).

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR):

309160855

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:


Toshkent viloyati, Yuqorichirchiq tumani, Yangibozor, Mustaqillik ko'chasi,

Guvochnoma:

Toshkent viloyati, Yuqorichirchiq tumani, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):



Aura *rigzker*
Geoff

MA'LUMOTLAR / OBSERVATIONS

2003-10-2000

YASHASH JOYI / ADDRESS



100064 1565



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

FAMILIYASI

SOTIBOLDIYEV

ISM

BEKZODJON

OTASINING ISMI

DONIYOR O'G'LII

TUG'ILGAN SANASI

21 01 1993

MILLATI

O'ZBEK

KIM TOMONIDAN BERILGAN

TOSHKENT VILOYATI PARKENT
TUMANI IIB

JINSI

ERKAK

TUG'ILGAN JOYI

PARKENT TUMANI

SHAXSIY IMZO / HOLDER'S SIGNATURE

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI / REPUBLIC OF UZBEKISTAN

PASPORT PASSPORT

TURI / TYPE

DAV'LAT KODI / COUNTRY CODE

PASPORT RAQAMI / PASSPORT N.

P

UZB

AC0641565

FAMILIYASI / SURNAME

SOTIBOLDIEV

ISM / GIVEN NAMES

BEKZODJON

FUQAROLIGI / NATIONALITY

UZBEKISTAN

TUG'ILGAN SANASI / DATE OF BIRTH

21 01 1993

JINSI / SEX

TUG'ILGAN JOYI / PLACE OF BIRTH

M

TASHKENT REGION



BERILGAN SANASI / DATE OF ISSUE

06 08 2018

AMAL QILISH MUDDATI / DATE OF EXPIRY

05 08 2028

PERSONALLASHTIRISH ORGANI / AUTHORITY

STATE PERSONALIZATION

CENTRE

P<UZBSOTIBOLDIEV<<BEKZODJON<<<<<<<<<<

AC06415659UZB9301216M28080593210193055007002

“TASDIQLAYMAN”

“Sirdaryo” HSXB

boshlig‘i o‘rinbosari

vazifasini bajaruvchi,

Xarid komissiyasi raisi

Irmatov F.M.

2022 y.“181” 08

2022 yil 1 avgust

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O‘RQ – 684 – sonli
“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuniga asosan 2022 yilda
“Sirdaryo” havzasi suv xo‘jaligi birlashmasining ma’muriy binosiga 2022 yil
davomida texnik xizmat ko’rsatish uchun” ishlarini olib borish uchun eng yaxshi
takliflarni tanlash g’olibini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan xarid komissiyasi
yig‘ilishining

4 – sonli BAYONNOMASI

“Sirdaryo” HSXBning 2022 yil 18 iyuldagи 60 – sonli ““Sirdaryo” HSXB Markaziy apparati uchun davlat xaridlari va xizmatlarini bajarish uchun eng yaxshi takliflarni tanlashda g’olibni aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan xarid komissiyasini “Sirdaryo” HSXB Markaziy apparati xodimlari tarkibidan shakllantirish to‘g‘risida”gi buyrug‘iga asosan, xarid komissiyasi yig‘ilishida quyidagilar ishtirok etishdi:

Xarid komissiyasi raisi:

Irmatov F.M. - “Sirdaryo” HSXB boshlig‘i o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi;

Xarid komissiyasi raisi o‘rinbosari:

Mo‘minov I.M. - Qurilish-ta’mirlash boshqarmasi boshlig‘i;

Xarid komissiyasi a’zolari:

Nurdinov I.A. - Ma’muriy-xo‘jalik boshqarmasi boshlig‘i;

Raxmanov E.R. - Texnik rivojlantirish va innovatsion texnologiyalar boshqarmasi yetakchi muhandisi;

To‘laganov M.SH. - Yetakchi hisobchi

Xarid komissiyasi kotibi:

Umarova S.A. - I toifali xodimlar bo‘yicha muhandis

Yig‘ilishni xarid komissiyasi raisi Irmatov F.M. o‘tkazdi.

Kun tartibi:

“Sirdaryo” HSXBning ma’muriy binosiga 2022 yil davomida texnik xizmat ko’rsatish uchun” ishlarini olib borish uchun “Sirdaryo” HSXB QQS bilan birga 140 000 000 (Bir yuz qirq million) so‘mli 2022 yil 21 iyul kuni

22110012126449-sonli lot maxsus axborot portalida elektron e'ltonni joylashtirdi. 2022 yilning 28 iyul kuni o'tkazilgan tanlash natijalariga ko'ra Xarid komissiyasi tomonidan bajarish qiymati QQS siz 116 400 000,0 (Bir yuz o'n olti million to'rt yuz ming) so'mli tanlash taklifi bilan Toshkent viloyati Yuqorichirchiq tumani, Yangibozor qo'rg'oni, Mustaqillik ko'chasida joylashgan "SUVINSHOOTLAR TEXNIK XIZMATI" MChJ tanlash g'olib deb topildi.

Tanlashda ikkinchi o'rinni QQSsiz 135 360 000 (Bir yuz o'ttiz besh million uch yuz oltmish ming) so'mli tanlash taklifi bilan Qashqadaryo viloyati, Nishon tumani, Talimarjon shahri, Mustaqillik ko'chasi, 1-uyda joylashgan "AGRO SUV TEX MONTAJ" MChJ egallagan deb topildi.

2022 yil 28 iyul kuni ““Sirdaryo” HSXBning ma'muriy binosiga 2022 yil davomida texnik xizmat ko'rsatish uchun” ishlarini olib borish uchun “Sirdaryo” HSXB tomonidan tanlash natijalariga ko'ra bayonnomma rasmiylashtirildi va maxsus axborot portaliga 2 (ikki) ish kuniga muhokama qilish uchun joylashtirildi. 2 (ikki) ish kuni mobaynida tanlash ishtirokchilaridan tanlash natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushmadi, shu sababli davlat buyurtmachisi, ya'ni “Sirdaryo” HSXB va xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnama tuziladi. Agarda tanlash g'olib bilan shartnama belgilangan muddatda imzolanmagan taqdirda, ushbu holat shartnama tuzishdan bosh tortish deb hisoblanadi va tanlashning navbatdagi (zaxiradagi – baholashning natijasi bo'yicha ikkinchi o'rin egallagan) ishtirokchisining maqbul taklifi ko'rib chiqiladi.

Muhokama qilish uchun belgilangan muddat o'tganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar Xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi O'RQ – 684 – sonli “Davlat xaridlari to'g'risida”gi qonuniga asosan xarid komissiyasi ovoz berish natijalari bo'yicha

QAROR QILADI:

1. “Sirdaryo” HSXBning ma'muriy binosiga 2022 yil davomida texnik xizmat ko'rsatish uchun” ishlarini olib borish uchun Toshkent viloyati Yuqorichirchiq tumani, Yangibozor qo'rg'oni, Mustaqillik ko'chasida joylashgan “SUVINSHOOTLAR TEXNIK XIZMATI” MChJ tanlash g'olib deb topilsin.

2. “Sirdaryo” HSXBning ma'muriy binosiga 2022 yil davomida texnik xizmat ko'rsatish uchun” ishlarini olib borish uchun **“SUVINSHOOTLAR TEXNIK XIZMATI” MChJ** bilan xizmatlarning bajarilish qiymati **QQS siz 116 400 000,0 (Bir yuz o'n olti million to'rt yuz ming)** so'm belgilansin.

3. Buyurtmachiga tanlash g'olib bilan shartnama tuzish topshirilsin.

4. “Sirdaryo” HSXBning ma'muriy binosiga 2022 yil davomida texnik xizmat ko'rsatish uchun” ishlarini olib borish uchun tanlashda ikkinchi o'rinni Qashqadaryo viloyati, Nishon tumani, Talimarjon shahri, Mustaqillik ko'chasi, 1-uyda joylashgan “AGRO SUV TEX MONTAJ” MChJ egallagan deb topilsin.

5. "Sirdaryo" HSXBning ma'muriy binosiga 2022 yil davomida texnik xizmat ko'rsatish uchun" ishlarini olib borish uchun "AGRO SUV TEX MONTAJ" MChJ bilan xizmatlarning bajarilish qiymati QQSSiz 135 360 000 (Bir yuz o'ttiz besh million uch yuz oltmisht ming) so'm belgilansin.


6. Agar tanlash g'olib bilan shartnoma belgilangan muddatda imzolanmagan taqdirda, buyurtmachiga tanlashda ikkinchi o'rinni egallagan bilan shartnoma imzolash belgilansin.

Xarid komissiyasi a'zolari:

Irmatov F.M.



Muminov I.M.



Nurdinov I.A.



Raxmanov E.R.



To'laganov M.Sh.



Bayonnomani tuzdi: kotib Umarova S.A.